

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K: 811.111+811.161.2:81'367.1+81'27

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILSHUNOSLIGIDA NUMERATIV BIRLIKLARNING
O'RGANILISH TARIXI****ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ НУМЕРАТИВНЫХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И
КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ****HISTORY OF THE STUDY OF NUMERATIVE UNITS IN ENGLISH AND KARAKALPAK
LINGUISTICS****Aimuxammetova Aziza Maxsetbayevna** 

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada sonlarning ingliz va qoraqalpoq tillarida o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan va tadqiqotchilar tomonidan son va raqamlarga berilgan turli xil tariflari ko'rsatib o'tilgan. Sonlarning leksik-grammatik, lingvomadaniy va mifologik xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

Аннотация

В статье проанализирована степень изученности чисел в английском и каракалпакском языках и приведены различные определения чисел и цифр, данные исследователями. Лексико-грамматические, лингвокультурологические и мифологические особенности числительных были проанализированы исследователями.

Abstract

The article analyzes the degree of study of numbers in English and Karakalpak languages and shows various definitions of numbers and digits given by researchers. The lexical-grammatical, cultural linguistic and mythological features of numerals have been analyzed by researchers.

Kalit so'zlar: Son, raqam, leksika-semantika, maqol, frazeologik birlik, symbol.**Ключевые слова:** Число, цифра, лексика-семантика, пословица, фразеологическая единица, символ.**Key words:** Number, numeral, lexical-semantics, proverb, phraseological unit, symbol.**KIRISH**

Leksik-semantik ma'nosi, morfologik shakli va sintaktik vazifasi jihatidan umumiy o'xshash belgilarga ega bo'lgan so'zlarning guruh so'z turkumlari tarkibida sonlar ma'noli so'z turkumlari guruhiga kiradi. Narsaning sonini, miqdorini, qator tartibini bildirib keladigan so'z turkumi son deb ataladi. Son asosiy semantik ma'noda nechta? qancha? nechanchi? nechta? qanchaday? kabi savollarga javob berib keladi. Sonning boshqa ma'noli so'z turkumlaridan asosiy xususiyatlari bor. Son so'z turkumi o'zining shakl yasovchi affikslarigagina ega, sonlar esa narsaning miqdorini emas, balki matematik nomini ifodalab kelganda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qiladi. Bu xususiyatlar ko'plab qoraqalpoq va ingliz tilshunoslari tomonidan o'rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sonning boshqa ma'noli so'z turkumlaridan asosiy xususiyatlari bor. Son so'z turkumi o'zining shakl yasovchi affikslarigagina ega, sonlar esa narsaning miqdorini emas, balki matematik nomini ifodalab kelganda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qiladi. A.Bekbergenov 1976-yili qoraqalpoq tilshunosligida "Qaraqalpaq tilinde sanliqlar"[1] mavzusi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qilib, keyinchalik bu asar nashrdan chiqdi. U o'zining ilmiy ishida sonlarning etimologiyasini, morfologik va sintaktik hamda leksik-semantik xususiyatlarini ko'rsatib o'tar ekan, bir soniga alohida to'xtalib o'tgan. Shuningdek, uning yirik ilmiy ishlaridan biri bo'lgan "Rus ham qaraqalpaq tilleriniñ salıstırmalı grammatıkası. Sóz jasalıw hám morfologıya" nomli kitobida bir qator so'z turkumlarini taqqoslab, sonning rus va qoraqalpoq tillaridagi o'ziga

xosliklarini ko'rsatib bergan. Bu ishlar qoraqalpoq tilshunosligida hamda ko'plab qo'shni tillarda son mavzusi bo'yicha ilmiy manba bo'lib hisoblanadi.

Son so'zlar abstrakt tushunchani ifodalaydi, shu bilan birga, bir ma'noli so'z bo'lib, modal-ekspressiv xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Sonlar tilda predmetning, hodisaning, harakatning sonini bildirib keladi, gap ichida atributiv va relyativ munosabatga ega bo'ladi. Boshqa turkiy tillar bilan qoraqalpoq tili qardosh til bo'lganligi uchun o'xshashliklarning bo'lishi tabiiy. Bu qonuniyat sonli so'z turkumida ham ko'zga tashlanadi. Boshqa turkiy tillardagi kabi hozirgi qoraqalpoq adabiy tilidagi son nomlari asosiy yigirma so'zdan iborat. Ular: bir, ikki, uch, to'rt, besh olti, yetti, sakkiz, to'qqiz o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming so'zlari bo'lib hisoblanadi. Qoraqalpoq tilshunosligida son bilan kelgan so'zlar chuqur o'rganilgan bo'lib, sonli so'zlar ham o'zining ilmiy nuqtai nazardan o'rganilish darajasiga ega.

Professor N.A.Baskakovning "Каракалпакский язык (Фонетика и морфология, часть первая, Части речи и словообразование)" degan fundamental ishi qoraqalpoq tilidagi sonlarni o'rganishda ham dastlabki ish bo'lib xizmat qiladi. Sonlar bu ishda ma'noli, shu jumladan, atov so'z turkumlari tarkibida so'z etilib, ularning yasash usullari ham tadqiq etiladi.[8]

Ingliz tilshunosligida son keng o'rganilgan bo'lib bunga misol sifatida G.Davidning "Distributive Numerals" nomli ilmiy ishini aytib o'tish o'rinli. U o'z ilmiy ishida sonning faqat morfologik, sintaktik ma'nolarinigina emas, ularning semantik ma'nolarini ham yoritib bergan.[5]

Bert Bultinck o'zining "NUMEROUS MEANINGS: The meaning of English cardinals and the legacy of Paul Grice" nomli doktorlik dissertatsiya ishida ingliz tilidagi raqamlarni tahlil qilgan va ikki raqamga alohida to'xtalib o'tgan.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot ikki til - ingliz va qoraqalpoq tillarida mavjud ishlarni va sonlarni taqqoslash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi.

Kontent tahlili. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi sonlarga berilgan izohlar va o'xshashliklar tahlil qilingan.

Taqqoslash metodi. Har ikki tildagi sonlarning o'xshashliklarini aniqlash, ayniqsa til va madaniyatga oid xususiyatlarini tahlil qilish. Har bir bajarilgan ilmiy ishni o'rganish va ularning ilmiy tadqiqot jarayoniga qo'shgan hissasini baholash.

Tahlil va natija. Quyida tadqiqot jarayonidagi o'rganilgan ilmiy ishlar va ularda berilgan fikrlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

D.S.Nasirov, J.Qayirbayev, O.Dospanovlar muallifligida nashrdan chiqqan "Qoraqalpoq tili Fonetika, leksika, morfologiya sintaksis" nomli kitobida son so'z turkumiga berilgan ta'rif bo'yicha son bu - "gap ichida kelganda narsaning sonini, tartibini, miqdorini, miqdorini, bo'lagini bildirib, qancha? nechta? nechinchi? degan savollarning biriga javob bera oladigan so'z turkumi son deb ataladi" deb ta'rif bergan va sonlarning boshqa qardosh turkiy tillardan farqlarini va qoraqalpoq tilidagi sonning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tgan.[4]

A.Davletov, M.Davletov, M.Qudaybergenovlarning muallifligida 2010-yili nashrdan chiqqan "Hozirgi qoraqalpoq adabiy tili. Morfemika.Morfonologiya. So'z yasash. Morfologiya" universitetining va pedagogika institutining qoraqalpoq filologiyasi fakulteti uchun darslik kitobida son haqida ma'lumot berilgan.[2]

"Bir" raqamining noaniqlikni bildirishi M.Qudaybergenov tomonidan "Qoraqalpoq tilidagi otlarda aniqlik va noaniqlikning ifodalanishi" nomli monografiyasida o'rganilgan. "Qoraqalpoq va boshqa barcha turkiy tillardagi sonlarning ichida "bir" soni o'zining son ma'nosidan tashqari har xil ma'nolarda qo'llaniladi. Hech bir boshqa raqam "bir" raqamidek ko'p ma'noga ega emas" deb bir ta'rif beradi.[7]

Sonlar har bir tilda o'zining muhim o'rniga ega bo'lib, ko'plab olimlar morfologiyaning bir qismi sifatida o'rgangan. S.Nizomiddinova o'zining "Hozirgi zamon O'zbek tilida son" nomli monografiyasida o'zbek tilidagi sonlarning morfologik xususiyatlari bilan bir qatorda raqamlarning ma'nosiga ko'ra turlarini ko'rsatib bir raqamga alohida to'xtalib uning xususiyatlarini aytib o'tgan.[9]

L.M.Pelipenko tomonidan olib borilgan "Когнитивно-семиотические и лингвокультурные особенности нумеративных фразеологических единиц" nomli ishida "bir," "ikki," "uch" sonlarining rus va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida kelishini o'rgangan. U o'z ishida frazeologizmlar tarkibida kelgan bir soni "yolg'izlik" va "birlik" ma'nosini berishini, ikki raqamini esa

TILSHUNOSLIK

ikkiga bo'linganlik va qarama-qarshilik ma'nosini, va uch raqamining konflikt va yaxlitlik ma'nosini berishini misollar bilan ko'rsatib o'tgan.[6;11-12]

Bert Bultinck o'zining nomzodlik ishida sonlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Birinchidan, ingliz sonlarini boshqa so'z turkumlaridan semantik jihatdan farqlash mumkin. Ular miqdorning mayda bo'lakli ko'rsatkichlari sifatida til foydalanuvchisiga ma'lum bir turdagi birliklarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va h.k. imkoniyat beradi. Shu bilan birga, barcha raqamlar bir-biriga juda o'xshash funksiyalarga ega, shuning uchun har bir raqamning qiymati boshqa hadlar hisobiga to'liq aniqlanishi mumkin. Shuningdek, raqamlar sifat so'zlaridan semantik jihatdan farqlanadi, chunki ular sifat so'zlarining xususiyatlarini bildirmaydigan obyektlar deb o'z ishida aytib o'tgan.[3;8]

Yu.V. Bopp o'zining ilmiy ishida maqol-matallar tarkibida kelgan sonlarning maqol-matallar bilan leksik-semantik aloqasini tahlil qilgan.[10]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bu maqolada sonlarning ingliz va qoraqalpoq tillarida o'rganilganlik darajasi tahlil qilinib ular misollar va nazariyalar yordamida ko'rsatib berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Bekbergenov "Qaraqalpaq tilinde sanliqlar" 1997
2. A.Davletov, M.Davletov, M.Qudaybergenov "Hozirgi qoraqalpoq adabiy tili. Morfemika.Morfonologiya. So'z yasaliish. Morfologiya" Nókis "Bilim" 2010
3. Bert Bultinck "NUMEROUS MEANINGS: The meaning of English cardinals and the legacy of Paul Grice" 2002
4. D.S.Nasirov, J.Qayirbayev, O.Dospanovlar "Qoraqalpoq tili Fonetika, leksika, morfologiya sintaksis"
5. G.Davidning "Distributive Numerals" 1982
6. L.M.Pelipenko "Когнитивно-семиотические и лингвокультурные особенности нумеративных фразеологических единиц" Автореферат канд.дисс М.,2016
7. M.Qudaybergenov "Qaraqalpoq tilindegi atlıqlarda anıqlık hám anıqsızlıqtırn ańlatılıwı" Nókis "Bilim" 2007
8. N.A.Baskakovning "Каракалпакский язык(Фонетика и морфология, часть первая, Части речи и словообразование)" 1952
9. S.Nizomiddinova o'zining "Hozirgi zamon O'zbek tilida son" Toshkent,1963
10. Yu.V. Bopp "Сопоставительный анализ английских числительных в составе паремиологических словосочетаний и их русских аналогов в дискурсе" автореферат канд. Дисс., Сургут 2009